

SUV ASOSLI ICHKI MAHSULOTLAR GURUHI

NIPPON PAINT INTERIOR CONCENTRATED PRIMER ICHKI DEVOR GRUNTI

MAHSULOT TAVSIFI

Akrilik kopolimer asosidagi, yuqori konsentrlangan astardir.

XUSUSIYATLARI

Nippon Paint Ichki Devor Konsentrat Astar bo'yoq bilan sirt o'rtasida ko'prik hosil qiladi. Penetratsiya xususiyati tufayli yuzaning ichki qatlamlariga singib, ustiga qo'llanadigan bo'yoq qatlamining sirt bilan yaxlitlashishini ta'minlaydi. Yuzaning emuvchanligini kamaytirib, bo'yoq sarfini pasaytiradi.

QO'LLANILADIGAN YUZALAR

Zaif macun (shpaklyovka), ohakli yuzalar, xususiyatini yo'qotgan past sifatli emuvchi plastik bo'yoq bilan bo'yalgan yuzalar, gazbeton va shunga o'xshash juda emuvchi va changlanadigan yuzalarda qo'llanadi. Gips va shunga o'xshash sirlarni silliqlagandan so'ng, konsentrlangan astarni surtishdan oldin sirt mexanik qurilma yoki qo'l yordamida changlanishlardan ozod qiling va nam mato bilan artish kerak bo'ladi. Nippon Paint ichki konsentrlangan astar kerakli suyultirishdan so'ng, cho'tka yoki rolik bilan sirtga surtilishi kerak. Qo'llash paytida sirt harorati +5°C dan +30°C gacha bo'lishi kerak. Astarni qo'llash va quritish vaqtida sirt muzlashdan himoyalangan bo'lishi kerak. Nippon Paint ichki konsentrlangan astarni qo'llaganidan keyin bo'yoq kamida 6 soat dan kegin qo'llanilishi kerak. Uni cho'tka yoki rolik bilan bir yo'nalishda, sirt ustida bir marta o'tish kerak.

Astarni izolatsiya maqsadida, tarama bilan qo'llash; glitolinli macun yoki solvent asosidagi astar va bo'yoq ustiga qo'llash mutlaqo tavsiya etilmaydi.

OGOHLIK

Nippon Paint Ichki Devor Konsentrat Astar qo'llangan yuzalarda shishasimon qatlam hosil bo'lmasligi kerak. Agar hosil bo'lsa, uni albatta zimpara yoki mexanik usulda olib tashlab, sirt mattlashtirilishi lozim. Aks holda: bo'yoqning ko'chishi, yorilishi, pufaklanishi, valik izi va qoplovchanlik muammolari paydo bo'lishi mumkin. Sirt ustida plyonka qatlam hosil qilmaydigan tarzda qo'llanishi kerak. Airless (sepish va purkash) usuli bilan qo'llanmasligi kerak. Mahsulotlar 30.06.2007 yil, 26568-sonli Qurilish Umumiy Texnik Shartlariga muvofiq yuzalarga qo'llanishi lozim.

SUTULTIRISH

- Nippon Paint Leona va Nippon Paint Moss uchun(Silikon asosli): **1 ulush astar — 7 ulush suv**
- Nippon Paint Aliza va Nippon Paint A+ Ceiling Paint uchun: **1 ulush astar — 10 ulush suv**

QURISH VAQTI (20°C, 65% nisbiy namlikda)

Qo'l tegishi: **1 soat**

Bo'yoqni qo'llash: **6 soat**

DIQQAT:

yuqori nisbiy namlik va past haroratlarda quritish vaqti uzoqroq bo'lishi mumkin.

SARFIYAT

1 litr bilan:

- 1/7 suyultirishda: **95–160 m²**
- 1/10 suyultirishda: **130–220 m²**

Astarlanishi mumkin.

Aniq sarfiyat uchun sinov qo'llanmasi kerak.

SAQLASH

3 yil davomida yopiq qadoqda, sovuq va quruq joyda, quyosh nurisiz saqlanadi. Qo'llagandan so'ng qopqoq havo kirmaydigan qilib yopiladi.

Ushbu texnik varaq normal sharoitlarda laboratoriya ma'lumotlari asosida tayyorlangan. Yuqorida ko'rsatilmagan tafsilotlar uchun texnik xodimlarga murojaat qiling. Aks holda, ishlab chiqaruvchi kompaniya bilim yetishmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar uchun javobgar bo'lmaydi. Kompaniyamiz ushbu ma'lumotni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Zarur bo'lganda, mahsulotlar bilan bog'liq sog'liq, xavfsizlik va qayta ishlash xavflari hamda ehtiyot choralari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun Materiallar xavfsizligi ma'lumotlari varaqlariga qarang.

Ushbu mahsulot Betek A.Ş. tomonidan TS EN ISO 9001, TS EN ISO 14001, TS 18001, TS EN ISO 50001, TS ISO 10002 standartlariga muvofiqlik sertifikatini bilan ishlab chiqarilgan.